

# HOZIRGI ZAMON HUQUQI VA UNING MOHIYATI HAQIDAGI KONSEPSIYALAR



## REJA:

1. Legizm va uning mohiyati.
2. Yusnaturalizm va uning mazmuni
3. Yuridik libertarizm.
4. Huquq va qonunni farqlash.
5. Libertar huquqni tushunish sharoitida huquqiy tartibga solishning xususiyatlari



Huquqni tushunish tipologiyasi, ya'ni huquq talqini har xil turlarinig muayyan tavsifi va ularni bir tipdagi (bir turdagi) guruhlarga ajratish turli asoslar (mezonlar) bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Huquq falsafasi nuqtai nazaridan huquqni tushunishning quyidagi uch turini ajratib ko'rsatish muhim. Bular: legistik, tabiiy-huquqiy va liberal-yuridik.

Legizm – huquqni davlat amri, majburiy qoidalar deb tushunishdir. Legizm huquqni avtoritar tushunishning normativ ifodasidir (Gobbs va b.) Ular huquq va qonunni tenglastiradilar, o'z e'tiborini amaldagi (pozitiv) huquqqa qaratadilar. Legistlar huquqning mohiyati, g'oyasi, qiymati kabi tushunchalarni xom hayol, quruq gap deb inkor qiladilar. Shu boisdan ham ular tabiiy huquq nazariyasini doimiy tanqid ostiga olishadi.





Huquqni tushunishning legistik tipi uchun huquqni (rasman hokimiyatning irodasi va o'zboshimchaligidan musraqil bo'lgan muayyan ob'yektiv mohiyat sifatida) va qonunni (hokimiyatning majburiy-zo'rlik bilan o'rnatilishi sifatida) aynan bir xil deb qarash xosdir. Legitimizmga ko'ra, huquq davlatning (majburiy o'rnatish, qoida hujjat, norma) hosilasi, uning buyrug'idir. Legizm mustabidlikning normativ ifodalanishidir. Legizmning intilishi – barchani hokimiyat-buyruqbozlik qoidalariga bo'ysundirishdan iborat. Bunda hamma joyda inson erki mavjudod sifatida emas, balki hokimiyatga bo'ysunuvchi ob'ekt sifatida qarash hukmronlik qiladi.

## Yuridik libertarizm

Libertar-yuridik huquqni tushunishga ko'ra, huquq – bu huquq sub'ektlarining formal tengligi prinsipi bilan belgilanuvchi tenglik, erkinlik va adolat munosabatlarining shaklidir. Qayerda formal tenglik prinsipi (uni konkretlashtiruvchi norma) mavjud bo'lsa, o'sha yerda huquq, munosabatlarning huquqiy shakli ham mavjud. Huquq prinsipi sifatida formal tenglik huquqning farqlantiruvchi xususiyati va o'ziga xos belgisi, huquqiy asos hamdir. Huquqda formal tenglik prinsipi uning mohiyatijihatidano'zgarib hisoblanadi. Ushbu prinsipdan tashqariga chiquvchi va unga qarama-qarshi bo'lgan hamma narsa nohuquqiy bo'lib huquqqa zid hisoblanadi.

## Yusnaturalizm

Pozitiv huquqqa qarama-qarshi qo'yiluvchi tabiiy huquqni tan olishga asoslangan tabiiy-huquqiy yondoshuv tabiiy huquq g'oyalari tarafdorlari uchun tabiiy huquq bu ob'ektiv borliq – xudo yoki inson tabiatiga bog'liq yagona, haqiqiy, boshlang'ich huquqdir, u o'zida odillik, axloqiylik, adolat g'oyalarini mujassam etadi. Ular pozitiv huquqqa tabiiy huquqdan chetga chiquvchi, sun'iy tarzda o'rnatilgan huquq deb qaraydilar. Bunday yondoshuvga ko'ra, huquq haqiqiy ma'noda bu aynan va faqat tabiiy huquqdir.

Yusnaturalizm va uning mazmuni yusnaturalizm (tabiiy-huquqiy yondoshuv)ga ko'ra huquq o'z mohiyati, tabiati va mazmuniga ko'ra, tabiiy huquqdir. Biroq, tabiiy huquqning o'zi nima degan savolga turli tabiiy-huquqiy konsepsiyalar turlicha javob beradilar.

Tabiiy-huquqiy ta'limotlar tarixi tabiiy huquq (ular tushunchalari)ning plyuralizmini aks ettiradi, bunda o'zaro raqobatlashuvchi ta'limotlardan har biri tabiiy huquqni o'ziga xos tushunishga nisbatan o'z qarashlarining haqqoniyligiga da'vogarlik qilib keladi.

Yangi davr legistik yondoshuvni T.Gobbs asoslagan:  
“Qonunning huquqiy kuchi, suverenning buyrug’i ekanligidan iboratdir xolos”. Bunda “qonun” deganda amaldagi butun (pozitiv) huquq nazarda tutiladi. Keyinchalik huquqni bunday tushunish “yuridik pozitivizm” (непозитивизм) deb ataldi va har xil yonalishlarning vakillari tomonidan qorol qilib olindi. U mohiyat e’tibori bilan yuridik emas, balki aynan legistik pozitivizmdir (непозитивизм).



Angliya tahliliy yurisprudensiyasining taniqli vakillaridan biri D.Ostin o'zining "Pozitiv huquq falsafasi" to'g'risidagi asarida huquqni "siyosiy rahbar yoki suveren tomonidan belgilangan qoidalar agregati" sifatida tavsiflangan va "har qanday huquq buyruqdir" deb ta'kidlagan. Sh.Amos ham

"huquq mazkur hamjamiyatdagi shaxslarning hatti-harakatlarini nazorat qilish maqsadidagi davlat hokimiyatining oliy siyosiy buyrug'idir" deb uqtiradi. G.F.Shershenevich "Huquqning har qanday normasi buyruqdir. Huquq davlat yaratgan narsa, davlat hokimiyati esa uning tomonidan boshlang'ich dalil bo'lib, unda huquq normalari bir-birini yetaklab chiqib keladi".

Legistik tushunishning asosi – davlat hokimiyati o'z buyrug'I bilan huquqni keltirib chiqaradi. Bu nazariyaga ko'ra hokimiyat buyuradigan hamma narsa huquqdir.





Tabiiy huquq ko'pincha tabiatan hosil bo'lgan huquq, o'zgarmas huquq, chinakam huquq, oqilona huquq, falsafiy huquq, so'zning asl ma'nosidagi huquq, to'g'ri huquq va hokazolar sifatida belgilanadi. Pozitiv huquq ham tegishli ravishda turlicha: sun'iy (tabiiy bo'lmagan) huquq, insoniy huquq, irodasi orqali o'rnatilgan huquq, o'zgaruvchan huquq, shartli huquq, haqiqiy bo'lmagan huquq va boshqalar tarzida belgilanadi. Shunday qilib, tabiiy huquq nafaqat tabiiy berilgan, balki tabiiy amal qiluvchi huquqdir.



**HUQUQ** – davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy majburiy ijtimoiy normalar tizimi. U huquqiy munosabatlar va fuqaroning davlat tomonidan mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza etiladigan asosiy huquqlarini o'z ichiga oladi. Huquq davlat bo'lib uyushgan jamiyatda paydo bo'ladi va mulkchilik munosabatlarini, xo'jalik aloqalari mexanizmini mustahkamlaydi, mehnat va uning mahsulotlarini jamiyat a'zolari o'rtasida muayyan o'lchov va shakllarda taqsimlab turuvchi vazifasini o'taydi (fuqarolik huquqi, mehnat huquqi); vakolatli organlar, davlat boshqaruvi organlari shakllanishi, tartibi, faoliyatini belgilab beradi, nizolarni qay yosinda hal qilish kerakligini, mavjud ijtimoiy munosabatlarni buzishga qarshi kurash choralarini (jinoyat huquqi, protsessual huquq) belgilaydi, shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xil shaklariga ta'sir ko'rsatadi (oilaviy huquq). Huquq normalari boshqa ijtimoiy tartibga soluvchi normalar (din, axloq, odat va boshqalar)dan o'zining majburiyligi bilan alralib turadi.